



NORMUROD NORQOBILOVNING "KURASH" QISSASIDA MILLIYLIGIMIZ

Bazarbayeva Sabina Anvar qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti Filologiya tillarni o'qitish o'zbek tili
2-bosqich

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8263028>

ARTICLE INFO

Received: 09th August 2023

Accepted: 17th August 2023

Online: 18th August 2023

KEY WORDS

Obraz, timsol, tavsif, uslub,
portret, syujet.

ABSTRACT

Ushbu maqolamizda o'zbek nasrchilikining yana bir yorqin namoyandasi Normurod Norqobilovning "Kurash" qissasi tahliliga tortilgan bo'lib, bizning o'zbek millatiga xos bo'lgan umumiy tushunchalar yaqqol ko'zga tashlanadi shu asarda va undagi Hamida momo obrazi orqali tushunchalar judayam yorqin tarzda ko'rsatib berilgan.

Hozirgi paytda qissachiligimizda judayam ko'p ishlar olib borilyapti. O'zbek qissachiligida ham ko'plab qissanavislar o'z ishlari bilan namoyon bo'lishmoqda. Shunday qissanavislardan biri Normurod Norqobilovdir. Normurod Norqobilov 1953-yil 7-iyunda Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. Dastlabki "Chorraha" undan keyin birin ketin qissa va hikoyalar to'plamlari bosilib chiqqan. "Xazina", "To'gu toshlarda", "Qoyalar ham yig'laydi", "Oq boyin", "Changalzor iti", "Belbog'", "Ovul oralagan bori" kabi qissalari bor va bu qissalar qatorida "Kurash" qissasini ham bilamiz qissaning qahramonlari Hamida momo Mayram chaqqon, Shomurod, Otkir muallifi va shular orasida Hamida momoni bosh qahramon sifatida ko'rishimiz mumkin. Hamida momo obrazi orqali biz faqat bitta insonga tegishli bo'lgan emas balki, butun bir o'zbek xalqiga xos bo'lgan jihatlar ochib berilgan desak yanglishmagan bo'lamiz. Hamida momo keksa bo'lishiga qaramay o'z og'li bilan kurashadi kuragi yerga tegishiga qaramay olishuvdan qaytmaydi. Yoshligida ham mana man degan er yigitlarni kuragini yerga tekkizgan va shu jumlar bilan esga oladi.

- Omon choponni oxshatganim esingdami Chirillab oraga tushmaganlaringda gorini qirda qazirdim kelbatidan ot hurkadigan Omon choponni oyog'ini osmondan keltirib urganida belini yantoq tikanlari tilgan ganimi bog'izlangan buqadek bokirib yuborgandi. Hamida momo erkak kishi shanini oylagani uchunam bu gap oralarida sir bo'lib qolgan.[1.4]

Hamida momoning yoshligida qanchalik chaqqon dovyurak bo'lganliklarini shu jumlar orqali ham bilishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov o'zining asarlar to'plamining birinchi jildida O'zbekiston milliy istiqloq iqtisod siyosat mafkura deb atadi. Milliy istiqloq mafkurasi xalqimizning azaliy an'alariga udumlariga tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib kelajakka ishonch adolat marifat tuygularini ongimizga xizmat qilishi lozimligini hech qachon unutmaylik. Islom Karimov.[2]



Ayollar jasoratini momomiz Tòmaris orqali ham bilib olishimiz mumkin ayol bòlishiga qaramasdan er yigitlar qila olmaydigan ishlarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, yana òzbek xalq dostonlaridagi ayol obrazlarida ham bu yaqqol namoyon bòlgan.

"Kuntuǵmish" dostonida Xolbeka òz oshiqclariga shunday deydi: Kimda Kim meni olaman deb kelsa nard òynaymiz utsa tegaman, bòlmasa sòyaman ayol bòlsam ham qavlimdan qaytmayman deydi. [3.235]

Yana bir xalq dostoni "Alpomish" da Barchinoy ham unga kelgan sovchilarga beshta shart qòyadi shu shartlarda òzganga tegaman deydi.[4.345]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki yuqoridagi barcha òrinlarda òzbek ayoli qanchalik matonatli jasur sabr bardoshli ekanlikini bilib oldik. Ayol bòlishiga qaramasdan Hamida momo qanchadan qancha er yigitlarni kuragini yerga tekkizgan va ota bobolariga munosib avlod bòlib yetishgan. Kurash bu bizning milliyligimiz milliy iftixorimizdir. Milliylik milliy ong va ǵururimiz har narsadan ustundir.

References:

1. N.Norqobilov "Kurash "qissasi
2. Islom Karimov asarlar tòplami.1-jildi.
3. Kuntuǵmish dostoni G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti Toshkent.1975
4. Alpomish dostoni.Toshent.Fan nashryoti-2018